



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 23-dekabr, shanba,
152 (23.873)-son

**KUN
HIKMATI**

Xotirjamlikning
asosiy sharti
birovdan qarzdor
bo'lmalik

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz



Viloyat hokimi yoshlar bilan uchrashdi:

YIL SARHISOBI VA TAKLIFLAR TINGLANDI

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida viloyat hokimi Erkinjon Turdimovning yoshlar bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Viloyat hokimi sifatida yakunlanayotgan yilning sarhisobini aynan sizlar bilan baham ko'rishni, o'z navbatida, kelayotgan yil rejasi bo'yicha takliflarini eshitishni istayman, - dedi E.Turdimov. - Bugun viloyatimiz aholisining 2 million 315 ming nafarini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. O'tayotgan yilda 54 ming nafar ishsiz yoshning bandligi ta'minlandi, norasmiy sektorda band bo'lgan 217 mingga yaqin yoshlarga o'zini-o'zi band qilishga ko'maklashildi. Alohida ijtimoiy ko'makka muhtoj

hokimi yoshlarning taklif va murojaatlarini tingladi. Ularga yechim topish choralari bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi. - Bundan bir necha yil ilgari o'quvchilar o'rtasida "Viloyat hokimi fan olimpiadasi" o'tkazilar edi, - deydi Samarqand shahridagi 51-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchisi Gulruxsor Nurmuhammedova. - Keyingi ikki yilda negadir bu to'xtab qoldi. Shuning uchun bugungi uchrashuvda mazkur olimpiadani qayta yo'lga qo'yish taklifini berdim. Viloyat hokimi



bo'lgan 28 mingdan ko'proq yigit-qizlarning muammolari hal etildi. "Yoshlar haftari"ga kiritilgan 34 ming 797 nafar yoshga 51 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. 2023-yilda bir guruh yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, "Yosh kitobxon" respublika ko'rik-tanlovida Samarqand shahridan Marhabo Mahkamatosheva g'olib bo'lib, Prezident sovg'asi - "Spark" avtomashinasi bilan taqdirlandi. "Bilim uchun 100 million" loyihasining g'olibi ham samarqandlik Jahongir To'rayev bo'ldi.

Shuningdek, viloyatimizning sportchi yoshlari O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida 2 ming 714 ta medalga ega chiqqan bo'lsa, jahon, Osiyo va turli xalqaro sport musobaqalarida 114 ta oltin, 75 ta kumush va 102 ta bronza medallarni qo'lga kiritdi. Yaqinda shaxmat bo'yicha xotin-qizlar o'rtasida O'zbekistondan ilk jahon chempioni bo'lgan samarqandlik Afruzaxon Hamdamovning muvaffaqiyatini alohida e'tirof etish lozim. Uchrashuvda viloyat

buni qo'llab-quvvatladi. - Keyingi paytda maktab bitiruvchi sinf o'quvchilari qo'shimcha pullik to'garaklarda qatnashishni istaydi, - deydi Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi Marjona Samadova. - Ularning aksariyati til o'rganishga qiziqadi. Maktabda o'tiladigan darslar esa ularni qoniqtirmaydi. Agar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan faol talabalar maktabdagi darslarga jalb qilinsa, o'quvchilar istaganidek zamonaviy ta'lim berilishida o'qituvchilarga ko'makdosh bo'lardi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov hamda tadbirida ishtirok etayotgan Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov bu taklifimni ma'qulladi. Viloyat hokimi 2024-yilda viloyatdagi har bir oliy ta'lim muassasasida ochiq muloqotlar tashkil etilishini bildirdi. Tadbir so'ngida o'tayotgan yilda yutuqlarni qo'lga kiritgan yoshlar viloyat hokimligi tomonidan rag'batlantirildi. **To'liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

"ILK RIVOJLANISH MARKAZI" DA 816 NAFAR BOLA TARBIYALANMOQDA

Toyloq pedagogika kolleji negizida Jahon banki bilan hamkorlikda "Ilk rivojlanish markazi" tashkil etilgan bo'lib, markaz "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi asosida faoliyat olib bormoqda. Markazda maktabgacha ta'lim agentligi tizimidagi ekstremal davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari ishtirokida amaliy seminar-trening bo'lib o'tdi.

- "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi tajriba sifatida sinovdan o'tdi, - dedi Maktabgacha ta'lim agentligining maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Zafar Usanov. - Uning yaxshi tomonlarini ommalashtirib, loyihani qanday davom ettirish masalasini ko'rib chiqishimiz kerak. Soha mutaxassislari o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, takliflarini bildirsa, shunga qarab, keyingi ishlarimizni rejalashtiramiz.

Toyloq tumanida 50 ta mahalla mavjud bo'lib, 41 ta mahalladan markazga 816 nafar tarbiyalanuvchi qamrab olingan. Ularga 36 nafar pedagog ta'lim bermoqda.

- Bizda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, kam ta'minlangan oila farzandlari va inklyuziv ta'limga ehtiyojli bor bolalar tarbiyalanadi. - dedi "Ilk rivojlanish markazi" koordinatori Zarina Zohidova. - Bolalarga pedagoglarimiz tomonidan turli mashg'ulotlar o'tkaziladi, ularning vaqtini aqliy rivojlantirish mashqlari orqali qiziqarli va samarali olib boradi. Markazda loyiha boshidan buyon 1617 nafar bolaga ta'lim-tarbiya berildi.

Tadbirida soha vakillariga Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi "Ilk rivojlanish markazi" ish tajribasi tanishtirildi. Ularning erishilgan natijalari tahlil qilindi.



Shuningdek, ishtirokchilar "Ilk rivojlanish markazi"da yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Tadbir so'ngida takliflar o'rta tashlandi, kelgusida bu kabi markazlarni ochish muhokama etildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson to'rtinchi sessiyasini chaqirish muddatini ko'chirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" - gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan **QAROR QILAMAN:**

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni chaqirilgan oltinchi chaqiriq to'qson to'rtinchi sessiyasi **2023-yil 28-dekabr kuni** o'tkazilishi belgilansin.
2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq to'qson to'rtinchi sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 - viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida;
 - xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 29-dekabrda "Samarqand viloyatining 2023-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida" gi VI-79-250-7-0-K/22-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish;
 - viloyatning 2024-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida;
 - boshqa masalalar.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV

2023-yil 22-dekabr

Xitoy safaridan so'ng

XITYOYLIKLAR BILAN HAMKORLIK MUSTAHKAMLANYAPTI

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi delegatsiya Xitoyda bo'lib qaytdi. Ushbu safar chog'ida biz - tuman hokimligi vakillari va bir guruh tadbirkorlar ham xitoylik ishbi-larmonlar bilan uchrashib, qator kelishuvlarga erishdik.

Tumanimizda shu paytgacha qadar ham xitoylik tadbirkorlar bilan hamkorlikda bir nechta loyiha amalga oshirilgan. Jumladan, dastlab 2019-yilda 4 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan "Xitoy besh barmaq qurilish materiallar" korxonasi ishga tushirilib, yiliga 20 million dona pishiq g'isht ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, yaqinda g'isht ishlab chiqarishga mo'ljallangan yana ikkita yirik korxonada faoliyat boshladi. Loyiha qiymati 5 million dollarlik "Samarqand richland international investmant" korxonasi yiliga 25 million dona, "Sophiya industrial" mas'uliyati cheklangan jamiyatida esa yiliga 30 million dona g'isht ishlab chiqariladi.

Xitoyga safarimiz chog'ida yana 9 ta loyihani amalga oshirish uchun kelishuvlarga erishdik. Birgina Shanxay tadbirkorlari bilan hamkorlikda 4

ta memorandum imzolandi. "FUXUAN WINDOWS & DOORS" kompaniyasi bilan zamonaviy turdagi eshik va derazalar, ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish uchun 42 million dollarlik loyiha amalga oshiriladigan bo'ldi. "KINGBON GROUP" kompaniyasi bilan esa ijtimoiy soha obyektlari, ministadion va boshqa ishlab chiqarish obyektlari uchun har xil turdagi sun'iy qoplamalar tayyorlaydigan korxonada tashkil etish rejalashtirildi. "Shanghai Mastimes Elektrikal Technology" nomli yirik korxonada vakillari bilan hamkorlikda tumanimizda kichik hajmli yuk avtomobillari ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda. "CCRC Electric vehicle" kompaniyasi bilan 85 million dollarlik loyiha, ya'ni har xil turdagi avtomobillarga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish uchun kelishuvga erishdik.

Shuningdek, Shandong provinsiyasidagi "Qingdao Kaineng Environmental Protection Technology" korxonasi bilan hamkorlikda qiymati 18 million dollarlik tejamkor isitish qozonlari ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishga kelishildi. "Shanghai Dingjun Food" kompaniyasi bilan esa meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Buning uchun 30 million dollarlik investitsiya jalb qilindi.

Bundan tashqari, Futszyan provinsiyasi tadbir-



korlari bilan ham kelishuvlarga erishdik. "Qhome Furniture" kompaniyasi bilan hamkorlikda qiymati 16 million dollarlik mebel mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. "FUJIAN SNOWMAN" korxonasi vakillari esa loyiha qiymati 14 million dollar bo'lgan kompressor ishlab chiqarish korxonasini ishga tushirish niyatida.

2024-2025-yillarda amalga oshiriladigan mazkur loyihalar bo'yicha 300 dan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi. Tumanimizda ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish uchun imkoniyatlar yetarli. Biz bilan hamkorlik qilish istagida bo'lgan xitoylik tadbirkorlar tumanimizga kelib, bu yerdagi sharoitlar bilan yaqindan tanishsa, bu kabi loyihalar soni yanada ortishi mumkin.

Samandar ASTONOV, Bulung'ur tumani hokimi.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" - GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:

- Samarqand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchilardan bo'lib yoritamiz;
- ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
- eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!

Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!

"ZARAFSHON" gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:

- 640 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxonada va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 768 ming so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

"САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:

- 468 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxonada va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 561 ming 600 so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**OBUNA -
2024**



Kattaqo'rg'ondagi yangi korxonada

500 ta ISH O'RNINI YARATILADI

Kattaqo'rg'on tumanining Yakkabog' mahallasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyati kengroq. Sababi, bu hududda "Yoshlar sanoati va tadbirkorlik zonasi" hamda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining filiali tashkil etilgan.

- Mahallada hokim yordamchisi vazifasida ish boshlaganimga ikki oy bo'ldi, - deydi Boburjon To'rayev. - Hududda imkoniyat katta, faqat undan oqilona foydalanish kerak. Ikki ta iqtisodiy zonada ham yerni maydonlari avvalgi tadbirkorlarga berildi. Korxonalar birin-ketin faoliyat boshlayapti. Mahallamizda xitoylik investorlar bilan hamkorlikda katta bir loyihaga qo'l urganmiz. Parranda go'shti yetishtirishga mo'ljallangan, bir vaqtning o'zida 5 millionta tovuq parvarishlanadigan fabrika tashkil etish rejalashtirilgan. Natijada 500 ta yangi ish o'rnini yaratiladi. Tadbirkorlarning ta'kidlashicha, ishchilarning o'rtacha oylik maoshi 500 dollar atrofida bo'ladi.

Mahalla aholisi orasida torgina hovlisida mehnat qilib, mo'maygina daromad topayotganlar talaygina. Masalan, Oleg Kenjayev nogironligi bo'lsa-da, sog'lom odamlardan qolishmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelyapti.

- Bundan 10-15 yil ilgari meni ishsizlik muammosi qiynardi, - deydi u. - Kuch-g'ayratim bo'la turib, ro'zg'or tebratishga qiyalayotganimdan afsuslanardim. Shuning uchun pul topish istagida xorijga yo'l oldim. Oilamdan olisda yashash oson kechmadi. Mehnatga yarasha haq to'lanmadi. Ustiga ustak, 2012-yilda baxtsiz hodisa tufayli to'shakka mixlanib qoldim. Yurtga qaytib, 7 yil ming bir azobni boshdan kechirdim. 2019-yilda nogironlik aravachasida yurib bo'lsa ham qandaydir yumush bilan shug'ullanishim mumkinligini his qilib, tovuq boqishga ahd qildim. 100 bosh broiler jo'ja sotib olib, ish boshladim. Bu tadbirkorligim avvaliga yaxshi natija bermadi. Ammo chekinmadim. Keyinchalik tuxum beradigan tovuqlarni parvarishlay boshladim. Hozirgi kunda 300 ta tovuq'im bor. Har kuni ularning 90 foizi tuxum beradi, kuniga o'rtacha 250 ta tuxum olaman. Tovular uchun yemni ham shu kichik hovlimda, qo'l bola uskunada tayyorlayman. Don mahsulotlarini bozordan olib kelish, tayyorlangan yemning ortiqchisini va tuxumlarini bozorga chiqarish uchun ulov kerak edi. Shuning uchun aravachali motosikl sotib oldim.

- Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, mahallada mehnatga layoqatli, ammo ishsiz, shu bilan birga, boqimandalik kayfiyatidagi odamlar ham topiladi, - deydi hokim yordamchisi B.To'rayev. - Biz ularga Oleg Kenjayevni namuna qilib ko'rsataymiz. Tovuuq boqishning ham o'ziga yarasha sir-sinoatlari bor. Oleg aka ishsiz mahalladoshlaridan kimdir shu yumush bilan shug'ullanish istagida bo'lsa, yo'l-yo'riq ko'rsatib kelyapti. U don mahsulotlaridan tovuq va qoramollar uchun yem ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirmoqchi. Shuning uchun zamonaviy uskunalar sotib olishga imtiyozli kredit ajratish masalasida menga murojaat qildi. Nogironligi bo'lishiga qaramasdan, ana shunday tashabbuslar bilan chiqayotgani meni to'liqlantirdi. Unga kredit emas, subsidiya asosida uskunalar berilishini aytdim.

Ha, mahallada yangi korxonalar ishga tushishi, tashabbuskor tadbirkorlarning safi kengayishi ishsizlik muammosiga yechim, aholi turmush farovonligining oshishiga sabab bo'ladi.

To'liqin SIDDIQOV.

Har bir tuman va shaharda 10 tadan maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga va qo'shimcha chet tiliga o'rgatish tashabbusi asosida viloyatimiz maktablarida amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu gal Past Darg'om tumanidagi maktablarda kasbga o'qitish ishlari bilan tanishdik.

Dastlab 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'ldik. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun tikuvchilik, qandolatchilik, IT to'garagi ish boshlabdi.

- Rejaga ko'ra, maktabda kasb-hunarga o'rgatish to'garaklari yanvar oyidan boshlanishi kerak edi. Ammo biz imkoniyatdan kelib chiqib, ayrim kasblarni o'rgatishni yo'lga qo'ydik, - dedi vaqtinchalik direktor vazifasini bajaruvchi Mavlon Oymatov. - Ayollar va erkaklar sartaoshligi bo'yicha ham alohida xonani jihatlab qo'yganmiz. Ammo maktabga taklif qilinayotgan sartaoshlar ko'p ishlaymay ketib qolyapti. Sababi, mijozlar soch oldirish uchun maktabga kelmaydi. Sartaosh ham mijozlarga xizmat ko'rsatib, ham o'quvchilarga kasbini o'rgatishi kerak.

Maktabga tuman hokimligi tomonidan 5 ta tikuv mashinasi berilgan. Texnologiya fani o'qituvchisi Nilufar Murodova o'quvchi qizlarga ko'rpato'shak, yostiqlik jildi tikishni o'rgatayapti. Uning aytishicha, hali tadbirkor bilan kelishuv bo'lmagan. Shuning uchun u qizlarning o'zlari olib kelgan matolardan tikishni o'rgatayapti. Maktabda qandolatchilik bo'yicha oilaviy tadbirkor Jamshid Xudoyberdiyev turmush o'rtog'i bilan yuqori sinf o'quvchi qizlariga turli shirinliklar tayyorlashni o'rgatmoqda.

Tumandagi 111-umumiy o'rta ta'lim maktabida kasb-hunarga o'rgatish uchun alohida bino mavjud.

- Biz yuqori sinf o'quvchilari uchun sartaoshlik, qandolatchilik, tikuvchilik kabi kasblar bo'yicha xonalarni tuman hokim-



MAKTABLAR KASB-HUNAR O'RGATISHGA TAYYORMI?

ligi ko'magida jihatlab, - deydi maktab direktori Asliddin Kattayev. - Ammo ustaxonada isitish tizimi mavjud emas. Xonalar sovuqligi bois o'quvchilarga kasblarni o'rgatish muammo bo'lyapti.

Darhaqiqat, kasb-hunarga mo'ljallangan ustaxona binosining xonalari katta, aynan hunar o'rgatishga moslab qurilgan. Ammo negadir ushbu binoda isitish tizimi yo'q. Biz joriy yilning may oyida ushbu maktabda bo'lganidagi ustaxona binosini tumanidagi "Bek beton" MCHJ tenderda yutib olib, ta'mirlayotgan edi. "Bino qishda qanday isitiladi?" degan savolimga "Bek beton" MCHJ rahbari Bekzod Sadinov zamonaviy "issiq pol" o'rnatishini, bino qishda issiq bo'lishini aytgandi. Ammo bu gap shunchaki gapligicha qolibdi. Sovuq binoda ish boshlagan sartaosh Asilbek Ismoilov hozircha uch nafar o'quvchiga kasb o'rgatayotganini aytdi. Xonada rakovina, suv isitish moslamasi o'rnatilmagan.

Qandolatchilik to'garigiga moslangan xonada ham pishiriq pechidan boshqa jihozlar keltirilmagan. Tikuvchilik xonasi uchun tuman hokimligi tomonidan dastlab 10 ta tikuv mashinasi berilgan, ammo negadir 5 ta tikuv mas-

nasini tuman hokimligi keyinchalik boshqa maktabga berib yuboribdi. Ushbu maktabda ham yuqori sinflarni kasb-hunarga o'rgatish to'garaklari 2024-yilning yanvar oyidan boshlanishi belgilangan ekan. Ayni qishda isitish tizimiga ulanmagan binoda kasb-hunar o'rgatib bo'lmaydi. Isitish masalasini mutasaddilar may oyidan beri o'yab ko'rmagan.

Tumandagi 56-IDUMda yuqori sinf o'quvchilari kasb-hunarga o'rgatish to'garaklari sentabr oyidan boshlangan bo'lib, maktab hovlisida alohida qurilgan xonada tikuvchilik to'garagi tashkil etilgan. Tuman hokimligi tomonidan maktabga 6 ta tikuv mashinasi berilgan. Biz may oyida ushbu maktabda bo'lganidagi hokimlik tomonidan 10 ta tikuv mashinasi keltirilganini ko'rgan edik. Bu safar tikuv mashinalari 6 ta qolibdi. Xullas, ushbu tikuvchilik to'garigiga moslangan xonada ham isitish tizimi mavjud emas. Tuman hokimligi yaqin kunlarda konditsioner olib berishni va'da qilgan emish.

Maktab o'quvchilariga tikuvchilikni o'rgatayotgan Sojida Eshmurodovanning aytishicha, maktab tadbirkor Nasiba Qalandarova

bilan shartnoma imzolangan. Ular tadbirkor buyurtmasi asosida matolarni tikib berishga kelishgan.

Maktab binosiga kiraverishda joylashgan ayollar sartaoshxonasi ham o'quv xonalaridan alohida bo'lib, unda Habiba Yusupova 18 nafar o'quvchi qizga hunar o'rgatmoqda. Shu bilan birga, mahalla xotin-qizlariga ham xizmat ko'rsatmoqda. Bu xonada ham isitish tizimi yo'lga qo'yilmagan.

Qandolatchilikni o'rgatish uchun maktabda alohida xona jihatlangan. Tuman hokimligi tomonidan pishiriq pechlari, qandolatchilik va xamir qorish uskunalari berilgan.

- Qizlarga haftada ikki marta dars o'taman, ularga turli shirinliklar tayyorlashni o'rgatayman, - dedi qandolatchilik to'garagi rahbari Nargiza Obidova. - Qizlar pishirgan shirinliklarni o'qituvchi va o'quvchilarga sotaymiz.

Ushbu ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida yuqori sinf o'quvchilari uchun dasturlash to'garagi yo'lga qo'yilgan. Havas qilishga arziqli tomoni, dasturlash uchun ikki ta'liq kompyuterlar va elektron doska bilan jihozlangan.

Biz ko'rgan maktablar tumanidagi sharoiti eng yaxshi maktablar bo'lib, ularda ham muammolar yetarlicha ekaniga guvoh bo'ldik. Tuman hokimligi ushbu muammolarga yechim topadi, degan umiddamiz.

Yana bir gap. Qolgan maktablarda ham kasbga o'qitishni yo'lga qo'yish uchun avvalo, alohida bo'sh xonalar bo'lishi kerak. Bugun deyarli barcha maktablarda sinflar yetishmasligi bois o'quvchilar ikki navbatda o'qitiladi. Kasbga o'qitish to'garaklarini yo'lga qo'yishdan oldin maktab hovlisidan ustaxona qurish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hamma tadbirkor ham o'z ish joyini tashlab, maktabda ishlashni istamaydi. Unga o'z ish joyidan yaxshi sharoit yaratish lozim.

Maktab bitiruvchilari hech bo'lmaganda bitta kasbni yaxshi o'rganib chiqishi uchun kasb-hunarga o'rgatish to'garaklari shunchaki, nomiga ochilmasligi kerak. **Xurshida ERNAZAROVA.**

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, viloyatda joriy yilning yanvar-noyabr oylarida 776 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31 foizga kamaygan.

Paxtachining jambullik

Fidoyilarimiz

"FARISHTA" si

Shunday insonlar bor, ular o'z kasbini yurak amriga ko'ra tanlaydilar. Ishlaganda fidoyilik bilan mehnat qiladi, zahmat chekishdan qochmaydi. Sanobar Mahmudova ham Samarqand tibbiyot institutini tugatganida, oradan ko'p o'tmay, Kiyevda ikki yil davomida malaka oshirganida ham viloyat markazi yoki poytaxtda ishlash uchun ko'p imkoniyat bo'ldi. Ammo opa ularning barini rad etdi. Turmush o'rtog'i Azamat Mahmudov ham jarroh shifokor bo'lgani uchun ikkalasi Paxtachi tumani tibbiyot birlashmasida ish boshlaydi.

- O'tgan asrning 90-yillarida ishga kelganimizda markaziy shifoxonada biron-bir zamonaviy jihoz yo'q edi, - deya o'sha yillarni xotirlaydi Paxtachi tumani tibbiyot birlashmasi skrining markazi shifokori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Sanobar Mahmudova. - Ammo Ibrohim Bobokalonov bosh shifokor bo'lgan tajribali jamoa bor edi. Ancha talabchan, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan tug'ruqxona bo'lim mudiri Bahodir Norov bilan Mukarrama Jumayevalardan kasb sirlarini o'rgandim. Ba'zida oddiygina tahlillar uchun ham bemorlarni viloyat markaziga jo'natishga to'g'ri kelardi. Transport kam, yarim kechalari uyimiz eshigini taqillatib, bemor ko'rishga olib ketishardi. Yo'q demasdik, qanday qilib qo'lingdan keladigan yordamni bermaslik mumkin? Ishdan charchab kelsak-da, chekka qishloqqa bemor ko'rishga borardik.

Sanobar Mahmudova 32 yil onalar va bolalar sog'ligi yo'lida xizmat qildi. Shifokorning ish faoliyati asosan oilalarda tibbiy savodxonlik va tibbiy madaniyatni oshirish orqali ona va bola salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar o'limini bartaraf etish, oilada sog'lom farzandlar tug'ilishi, yosh oilalarning sihat-salomatligiga mas'uliyatini oshirish bo'ldi.

Ushbu maskanda besh yil tug'ruqxona bo'limi mudiri, 17 yil tug'ruq vaqt muammasi mudiri bo'lib faoliyat yuritdi. Shu vaqt mobaynida minglab ona va bolalar sog'ligi uchun kurashdi, shuncha oila quvonchiga shrik bo'ldi. 1995-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan S.Mahmudova nafaqat paxtachiliklarning, balki qo'shni Narpay va Xatirchi tumanlari aholisining ham ishongan shifokoriga aylandi.

Asli Qozog'istonning Jambul shahrida tug'ilgan Sanobar opa Surxondaryoda o'rta



maktabni tugatdi, Paxtachining kelini o'laroq yillar o'tib, ularning qadri do'xtir opasiga aylandi.

Bugun ham tajribasini shogirdlariga o'rgatish barobarida tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli skrining markazida nuqsonli bolalar tug'ilishining oldini olishda fidoyilik bilan mehnat qilayotgan Sanobar Mahmudova tibbiyot xodimlari kuni arafasida Prezidentimiz farmoniga binoan "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

- Hozir ishlayman deganlar uchun barcha sharoitlar bor, - deya suhbatni davom ettiradi Sanobar opa. - Chekka tuman, qishloqlarda ham birlamchi tibbiy yordamni ko'rsatish uchun sharoit bor. Bugun vrachlar bemalol uyiga borib, hordiq chiqarishi mumkin. Izlanishi, o'z ustida ishlash, yanayam yaxshiroq muvaffaqiyatlarga erishish uchun imkoniyat juda ko'p.

Izzatulla NORQUVATOV.



So'nggi vaqtlarda firibgarlar tuzog'iga tushib qolayotgan insonlar haqidagi gap-so'zlar ko'paydi. Firibgarlar ham yangidan-yangi aldov usullarini o'yab topmoqda. Bir paytlar "Navbatsiz avtomashina olib beraman", "Institutga o'qishga kiritib qo'yaman" deganlar ko'p edi. Hozir "Amerikaga yuboraman", "Yer sotaman" deguvchilar ko'paydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali ham firibgarlikning turli usullari paydo bo'lmoqda.

Firibgarlar tuzog'iga ilingan aksariyat insonlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilib yordam so'raydilar. Ko'pchilik esa firibgarlarning "bugun, erta" degan so'zlariga ishonib, aldanib qolishadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilgan fuqarolarga firibgarlar yana va'dalar berib ishon-tirishadi. Shunda ayrim shaxslar dastlabki tergovda, hattoki, sudda ham ularga nisbatan yetkazilgan mulkiy ziyon qoplanmagan yoki qisman qoplanmagan bo'lishiga qaramasdan, go'yoki yetkazilgan zarar to'liq qoplanmaganligi, firibgarlarga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligi haqida

ariza, tilxat taqdim etishadi.

Huquqiy jihatdan qaraganda, jabrlanuvchiga nisbatan yetkazilgan zararining o'rnini qoplanishi - yengillashtiruvchi holat sifatida baholalanib, jinoyat sodir etgan shaxslarning foydasiga xizmat qiladi va unga nisbatan og'irroq turdagi jazo tayinlashni istisno etadi.

Firibgarlarning ozodlikka chiqishi bilan zararni qoplab berishi haqidagi yolg'on vajlariga ishonib, da'vosidan o'tgan shaxslar oradan oylar o'tsada, haqiqatda qoplanmagan zararni undirib ololmaydi.

Eng yomoni, bunday vaziyatda ularda ushbu zarar yuzasidan shikoyat qilish imkoniyati bo'lmaydi.

Chunki amaldagi qonunchilikka ko'ra, bir jinoyat uchun ikki marta jazo tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning o'z mulkiy va nomulkiy huquq va manfaatlari uchun avvalo, o'zlari mas'ul ekanliklarini inobatga olib, quyidagilarni tavsiya etamiz.

Birinchi navbatda, yetkazilgan zarar real qoplanmas ekan, firibgarlarga shunchaki ishonib, "zarar qoplandi" deb ariza, tilxat yozib bermang.

Qolaversa, xoh u kundalik hayotdagi, xoh shaxsiy hayotdagi masala bo'lsin, malakali huquqshunoslar yordamidan foydalaning, ulardan yuridik maslahat olmasdan qaror qabul qilmang.

Oldi-sotdi, ijara, qarz va kredit, mehnat munosabatlari va boshqa masalalarda, albatta, malakali huquqshunos bilan maslahatlashing.

Shuningdek, hech qachon sizning murojaatingizni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lmagan shaxsga murojaat qilmang.

Adham ABDIYEV,
viloyat sudining sudya katta yordamchisi.

Tuman elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i Shavkat Bahromov "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan tashkiliy etilgan press-turda shunday dedi.

Jomboyda elektr tarmoqlari korxonasi 2021-yilda tashkil etilgan bo'lib, tumanning 38 ming nafar iste'molchisiga xizmat ko'rsatadi. 33584 aholi xonadoniga ASKUE elektron hisoblagichlar o'rnatilgan bo'lib, to'liq onlayn tizimda ishlamoqda.

Hozirda 4 dona nimstansiya tumandagi barcha iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlanmoqda.

- 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida transformator punkti va 437,3 kilometr uzatish tarmoqlari ta'mirlandi, - deydi korxonada bosh muhandisi Erkin Davronov. - Shu kunlarda qo'shimcha 5 dona transformator punkti va 10 kilometr uzatish tarmog'ini ta'mirlashni rejalashtirganimiz.

G'azira mahallasida 116 dona temir-beton ustun, qariyb 4 kilometr yopiq kabel va 2 ta 160/10 kVli transformator punkti ishga tushirildi. Boshqa mahallalarda 356 dona temir-beton ustun, 5 ta transformator hamda 20,1 kilometr SIP kabellar tortib berildi. Tumandagi og'ir hududlar bo'lgan Dehqonobod, Sherqo'rg'on

"Hali Jomboyda elektrdan uzoq vaqt uzilish bo'lgan emas"



mahallalarida 3 ta transformator punkti ishga tushurildi.

Prezidentimizning "Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 157 dona temir-beton ustun, 4 ta transformator o'rnatildi va 3,2 kilometr yopiq kabel tortildi. O'nta mahalladagi eski simyog'ochlar o'rniga 267 ta temir beton ustun, muddatini o'tab bo'lgan

elektr simlari o'rniga esa 16,95 kilometr yopiq kabellar olib kelingan bo'lib, hozirda korxonada ishchi-xizmatchilari tomonidan o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Press-tur ishtirokchilari Olmazor mahallasida korxonada ishchilari tomonidan beton ustunlar o'rnatish va yopiq kabellar tortish jarayoni bilan tanishdi. Mazkur qishloqda 250 kVliq yangi transformator va 197 ta ustun o'rnatilmoqda.

- Olmazor tumanning chekka hududi hisoblanadi, - deydi korxonada rahbari Sherali Bahromov. - Ko'p yillardan buyon aholining elektr energiyasidagi uzilishlardan shikoyatlari tinmaydi. Viloyat hokimining topshirig'iga ko'ra, o'tgan asrning 70-yillarida har birining oralig'i 70-80 metr qilib o'rnatilgan 40 dan ziyod simyog'och yangisiga almashtirildi. 250 kVli yangi transformator o'rnatib, 4,9 kilometr masofaga kabel tortilyapti.

Mavsumda avariya holatlarini bartaraf etish uchun 2 ta tezkor brigada va tungi navbatchilik tashkil etilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.



Fotonika va optik tolali aloqalar bo'yicha magistratura ta'lim yo'nalishi ochildi

Samarqand davlat universitetining bir guruh olimlari Italiyaning Turin politexnika universitetida safarda bo'ldi.

bo'lsa, keyingi uchrashuv shu yilning may oyida Belgiyaning Gend universitetida o'tkazilgandi.

Bu galgi uchrashuvda loyiha ishtirokchilari Italiyaning Turin politexnika universitetida mavjud bo'lgan ushbu yo'nalishga doir o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan tanishdi. Uchrashuvda yangi ochilgan magistratura yo'nalishi uchun o'quv kurslari va mavzulari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Safar davomida universitet professor-o'qituvchilariga xorijlik mutaxassislar tomonidan fotonika va optik aloqa bo'yicha yangi magistrlik dasturlarini tayyorlash bo'yicha trening mashg'ulotlari tashkil etildi.

2022-yilda Yevropa ittifoqining Erasmus+ ilmiy loyihalari tanlovida Samarqand davlat universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda O'zbekiston Milliy universiteti hamkorlikda ishtirok etib, 650 ming yevro grant sohibi bo'lgan edi. Loyiha 2023-2025-yillarga mo'ljallangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekistonda telekommunikatsiya mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun oliy ta'lim muassasalarida fotonika va optik tolali aloqalar bo'yicha magistratura ta'lim yo'nalishini ochish rejalashtirilgan.

Ushbu loyihada SamDU bilan birga Italiya, Belgiya va boshqa davlatlarning oliy ta'lim muassasalari ham ishtirok etmoqda. Loyiha ishtirokchilarining dastlabki uchrashuvi shu yilning mart oyida Samarqand davlat universitetida bo'lib o'tgan

Loyiha doirasida O'zbekistonda telekommunikatsiyalar sohasida mehnat bozorini rivojlantirish uchun universitetlar va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Jumladan, Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi institutining optika va spektroskopiya kafedrasida shu yo'nalish bo'yicha magistratura mutaxassisligi ochildi.

Zohir HASANZODA.

Jinoyat va jazo

KASALNI YASHIRANG, ISITMASI OSHKOR QILADI

Joriy yilning 10-dekabr kuni viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor qidiruv bo'limiga tezkor ma'lumot kelib tushdi. Shu asosida Samarqand shahar Rudakiy ko'chasida qora rangli yelim paketni ko'tarib turgan fuqaro to'xtatilib, xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, paket ichidan 2 blok, har biri 500 donadan bo'lgan 1000 dona "Britanik" nomli pirotexnika vositalari topildi.

Ashyoviy dalillar tegishli tartibda hujjatlashtirib olindi hamda qoidabuzar shaxs javobgarlikka tortildi.

O'ZINGDAN CHIQQAN BALOGA...

2023-yilning 17-noyabr kuni kech soat 00:10 larda Samarqand temir yo'l bekati shoxobcha yo'lida shu bekat mashinisti E.Q., mashinist yordamchisi A.J., poyezd tuzuvchisi K.D. o'zaro til biriktirib, 4292-manyovr teplovizidan 200 litr dizel yoqilg'isini talon-toroj qilayotgani ma'lum bo'ldi.

Holat tezkor tartibda aniqlanib, hujjatlashtirildi.

KO'MIR O'G'RISI TOPILDI

Shu yilning 5-dekabrda Ziyovuddin temir yo'l bekati 2-yo'lga Angren-Buxoro yo'nalishida ko'mir ortilgan 3006-yuk poyezdi kirib kelgan. O'sha kuni bekatda qoldirilgan vagonlar shoxobcha yo'li orqali ko'mir saqlash omboriga olib ketilayotganda fuqaro O'.Sh. vagonlardan biriga yashirincha chiqib, taxminan 50 kilogramm ko'mirni tushurib qoladi. U vagonidan tushgan ko'mirni yelim xaltalarga joylab, olib ketayotgan vaqtda ushlandi.

A.IBRAGIMOV,
viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakili, mayor.

Huquqiy maslahat

MULK HUQUQI HAQIDA GUVOHNOMA QANDAY OLINADI?

Marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) arizasiga ko'ra umumiy mol-mulkdagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnoma berish qanday tartibda amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunida notarius tomonidan er-xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko'ra, meros ochilgan joydagi notarius tomonidan berilib, merosni qabul qilib olgan merosxo'rlar bu xususda xabardor qilinadi.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotininga (erga) nikoh davomida ortirilgan umumiy mol-mulkning yarmisi uchun berilishi

shu mumkin.

Agar marhum erdan (xotindan) keyin xotin (er) tomonidan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnomani olish haqida yozma ariza berilmasa, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulush ajratilmaydi.

Merosni qabul qilib olgan merosxo'rlarning yozma arizasiga ko'ra va marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) roziligi bilan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnomada vafot etgan erning (xotinning) ham umumiy mol-mulkdagi ulushi belgilanishi mumkin.

Ulug'bek QODIROV,
Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

Maktabimizning sport zali ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Hududda basketbol, voleybol hamda qo'l to'piga mo'ljallangan sport maydonchasi ham barpo etildi.

O'quvchilar telefondagi o'yinlarni emas, sport o'yinlarini o'ynaydi

Sport maydonchasi maktab, mahalla va jamoatchilik va-killari hamkorligida qurilgan bo'lib, yaqinda mahallada sun'iy qoplamali futbol maydonchasi ham foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Futbol maydonchasi ishga tushsa, futbol to'garagi ochib, maktabimiz o'quvchilaridan iborat o'g'il-qizlar futbol jamoasini tashkil qilamiz. Bu borada viloyatdagi "Dinamo" futbol maktabi bilan hamkorlikda iqtidorli sportchilarni saralab olamiz.

Sadoqat DO'STIYOROVA,
Samarqand tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

12 milliard so'm iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilingan

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlarini viloyat hududiy birlashmasi mas'ullari hamda sohada faoliyat yurituvchi no-davlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokida seminar o'tkazildi.

Unda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, bozorlar va savdo shoxobchalarida sotilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, sifatsiz mahsulotlar sotilishiga yo'l qo'ymaslik hamda sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalari haqida so'z yuritildi.

- Joylarda iste'molchilar tomonidan murojaatlar soni ko'payib bormoqda, - dey-

di Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bo'lim boshlig'i Farrux Mamadaminov. - Jumladan, joriy yilning to'qqiz oyi davomida birgina Samarqand viloyatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlariga mingdan ortiq murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlar birlashma va uning tuman (shahar) jamiyatlari tomonidan o'rganilib, iste'molchilar manfaatiga yetkazilgan 12 milliard so'm zarar qayta hisob-kitob qilingan va tegishli tartibda undirib berish choralari ko'rilgan.

Yig'ilish davomida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlar ijrosi, amalga oshirilgan ishlar, murojaatlar va ularning yechimi atroflicha muhokama qilindi.

Dilmurod DO'STMURODOV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Rasulova Riskiyaga (2008-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Rasulova Shoiraga (2022-yil 7-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Bababekov Xusen Axatovichga (2013-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Abdazov Damir Akbarovichga (2023-yil 10-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ruzmetova Elektra Narkulovnaga (2021-yil 25-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Xudoykulov Mamatkulga (2018-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahri mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Eshmatov Zuboydulla Barakayevichga (2020-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Akramova Gavxar Sharifovnaga (2007-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Xodjakonov Alisher Xodjakovichga (2023-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Raximov Sattarga (1966-yil 5-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Davronov Davlat Amonovichga (2020-yil 14-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Raximov Aminjonovichga (2017-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

BEKOR QILINADI
Samarqand tumanidagi "KURBANOV USAR AGRO MEVA" fermer xo'jaligining (STIR: 304113124) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yaqinda "Turkiston" gazetasida ishlagan jurnalistlarning maqolalari "Vaqtdan o'zgan odamlar" nomi bilan nashr etildi. Unda Samarqand shahrida yashab ijod qilgan jurnalist Gulchehra Aliboyevaning ham maqolasi joy olgan. Maqolani o'qisangiz, bir jurnalist ayolning hayot yo'li va mashaqqatli mehnatini ko'z oldingizga keltirasiz.



va rangi qizarib ketdi. Yuragimga vahima oraladi. Yonimdagi opaga hammasini aytib berdim.
- Cho'chimang, hech narsa bo'lmaydi. Siz haq bo'lgan bo'lsangiz, nimadan qo'rqasiz.
Tadbirdan keyin o'sha inson bizni choyga taklif qildi. Men ketmoqchi bo'ldim.

- O'tgan kunlar o'tib ketdi, singlim. Qolaversa, men aybimga yarasha jazo olganman. Qoling, mehmonimiz bo'ling. Men o'shanda sizga tan bergandim mardligingizga, o'z yo'lingizdan qaytmasligingizga, - dedi.
Baribir ancha paytlar cho'chib yurdim. Xuddi u yonimga keladigandek, o'chini oladigandek. Maqola yozilish jarayonida Jabbor aka vaziyat o'ta jiddiylik uchun meni Toshkentga chaqirtirdi. Faktlarni yana qayta-qayta tekshirtirdi va yakunlovchi xulosa uchun Toshkentdagi juda nomi ulug', o'ta jiddiy tashkilotga borib kelishimni aytdi. O'sha tashkilotning rahbari meni ko'rmoqchi bo'lgan ekan. Maqoladagi fakt va dalillar o'sha insonga borib taqalligandim. Men borib kelgunimcha Jabbor akaning qon bosimi oshib ketibdi. Jabbor aka o'ziday tap tortmas, ortga chekinmovchi xodimlarini doimo qo'llardi va ular uchun xavotir ham olardi. Axir u kishi bizning rahbar otamiz edi. Har birimiz, har bir maqolamiz uchun javob berishga tayyor turardi. O'sha yillari "Turkiston"da chiqqan har bir maqola shov-shuv bo'lardi. Boshqa tahririyatdagi ham ertaga "Turkiston"da - tap tortmaslarning gazetasida nimalar e'lon qilinar ekan-a, deb kutishardi.

O'sha, shov-shuvli "Besh ming so'mlik institut" degan maqolam e'lon qilindan keyin menga ancha vaqt ishga chiqmaslikni maslahat bergandi. Yomoni, o'sha maqola suratim bilan chop etilgan bo'lib, menga yomonlik qiluvchilarga bu qo'l kelgandi.

Kunlar bir-biridan ajoyib o'tardi. Tahririyat yig'ilishlari ba'zan tortishuvlarga aylanib ketardi. Bolajon Turg'un akaning yig'ilganini ko'rganman. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari haqidagi turkum maqolalarimni o'qiganida. Norqobil Jalil haliyam "Tinchlik ko'chasidagi notinch yigit" maqolasini eslab gapiradi. "Darvozaxonadagi ayol" mening qalbmni tirnagan maqola bo'lgandi. 20 yildan beri afg'onga ketgan bolasi kutib, har kunini darvozaxonada o'tkazadigan ayolning qiyofasini unutmolmayman hamon. O'sha ayolning surati "Yilning eng ta'sirli surati" bo'lgandi.

Xotirlarim o'tgan kunlarim kabi unutilmasdir. Har birining o'z tarixi bor. Mayda-mayda holatlarigacha eslay olaman. Maqolalarim qahramonlarining ba'zilar singlim, ba'zilar akam, ukam, opamday bo'lib ketishgandi. Maxsus muxbirlikning shunisi ajoyib ediki, qahramonlarim bilan yana qayta uchrashardim. Maxsus muxbirlikning shunisi qiyin ediki, tanqid qilgan odamlarimiz qiz qarshingizdan yana chiqardi. Shunda noqulay ahvolda tushgan vaziyatlar ham bo'lib turardi. Samarqand viloyati komsomol qo'mitasining ikkinchi kotibi Behzod Zokirov o'zbek tilini yaxshi bilmadi. Har bir tanqidiy maqolaga u javob yozishiga to'g'ri kelardi. Shunda maqolaga tushunmagani uchun mendan nimaga yozganimni aytib berishimni so'rardi. Men rad etardim.

- Kerak bo'lsa, tushunib oling, tilni o'rganing deb.
- Buncha tili zahar buning, - derkan meni. Shu sabab komsomol qo'mitalari ichida nomim Qalampirxon ham bo'lib tanilgandi. Zamon zayli bilan o'sha Behzod Zokirov vaqti kelib, respublikaga tanikli "Bekajon" gazetasiga asos soldi va umrining oxirigacha shu sohada ishladi. Bir kuni uni uchratib qoldim.
- Barcha gaplarim uchun uzr so'rayman. Jurnalistika sohasida ishlashning o'zi bo'lmas ekan, - dedi astoydil. - Mana, boshimizga tushayapti, opa.

Bir kuni ishlab o'tirsam, xonamga yoshgina yigit salom berib kirib keldi. Uni ko'rdim-u, bir qalqib ketdim. Go'yo yonimda maqolam qahramoni, rahmatli bo'lib ketgan afg'onchi Tolib Shermatov turgandek bo'ldi.

Yigitcha mening bu ahvolimni sezdimi:
- Meni kimgadir o'xshatdingiz-a, opa - dedi kulib. Tavba, kullishlarim o'xshaydi-ya!
- Ha, o'xshatdim. Bir yigitga o'xshatdim.
- O'sha yigit Tolib Shermatovmi? Men u kishining o'g'liman. Xursand bo'lib ketdim. Tashrifi sababini so'radim.
- Meni onam oldingizga yubordilar. Uylanyapman opa. To'yga taklif qilib keldim. Sizni onam tez-tez eslab turadilar. Agar otam hayot bo'lganlaridayam sizni to'yga aytardik.

Tabrikladim. Lekin to'yga borolmadim. Tolibning ruhiga atab duo o'qidim.

Jurnalistika - hayot maktabi. Jurnalistlarning afzallik tomonlari ko'p. Ular istagan eshiklariga kirib bora oladilar. Istagan insonini suhbatdosh qila oladilar. Nohaqliklarga ko'z yumib ketolmaydilar. Ijodlari ortidan qarindoshlar ham, dushmanlar ham ortira oladilar. Bu ularning hayotlari. Namlari, ism-shariflarining qadrini yerga urishni istamagan jurnalistlar ularni vaqti kelganda himoya ham qila olishlari kerak. Jabbor akaning o'g'itlaridan eng qadrlisi men uchun shu!

- Familiyang qadrini yerga urma. Sayoz maqolalarga familiyangni yozishdan uyal. Familiya sizlarning yuzlaringiz, unga dog' tushirmanglar.

O'tgan yillarga, kunlarga sayr qildirganingiz uchun tashakkur, Jabbor aka. Yoshligimni, jo'shqinligimni, qaysarligimni yodimga tushirganlaringiz uchun minnatdorman, qadrdon jamoadoshlarim. Umlaringiz uzoq bo'lsin. Biz hammamiz Jabbor akani yaxshi ko'ramiz. Ustozlik nomingiz bundan-da ulug' bo'lsin. Men baxtliman - sizlardek insonlar bilan birga ishlaganim, hayotim, taqdirim "Turkiston" bilan bog'liq bo'lgani uchun. Umr bekatlarimda borilingiz uchun hammangizga tashakkurlarim!

Guli CHEHRA.

O'TGAN KUNLARIMG A SAYR

Men – Guli CHEHRA va "Turkiston"

O'tgan kunlarning yillar o'tib nazar tashlash mushkulroq ekan. Esleysan, lekin o'sha paytdagi holatga tusha olmasan baribir. Negadir bu holat menga yomon ta'sir qilyapti. Yurak yuragimdan umrimning ko'p qismi o'tib ketganini bilyapman. Ancha yillarni boy berganimni, ko'p narsalarni yo'qotganimni his etyapman. Yoshlik payting hayoting hali oldinda ekanligini bilib, hech narsani o'ylamas ekanan. Yoshing oltmishdan oshgandan keyin yoshlikka qaytish qiyinroq, o'tgan yillarni xotirlash mushkulroq ekan. O'zi eslashga arzigulik narsalar bormi, ayt yurak, deb so'rayman. Xuddi umrim bekorga o'tib ketgandek, o'tayotgandek... Men qanday yashadim va yashayapman? Hamma gap ana shunda, ana shu savolga javob bera olishda.

Pensiyaga chiqish uchun hujjatlarimni olib boranimda qabul qilib olayotgan kishi:

- Eh-he, mehnat faoliyatingizni boshlagan kuningiz ajoyib raqamlarda ekan-u, - dedi va qo'li bilan ko'rsatdi: 08.08.1980 yil.

Ha. Men o'sha sana, o'sha yili ishga kirgandim. "Lenin uchquni" degan gazetaga matn teruvchi bo'lib. Keyin Jabbor akaning sa'y-harakatlari bois olgan uyimning raqamiyam 8, kvartirayam 8 raqamli edi. Bu tasodif bo'lmas kerak.

Qishloqdan borib, ToshDUning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan oddiy qiz taniqli ijodkorlar davrasiga osmondan tushganday bo'lib qolgandim. Hamza Imonberdiyev, Yoqut Rahimova, Sulton Jabbor, Abdusaid Ko'chimov, Muyassar Otajonova, Ikrom O'tbosarov, Shohrux Akbarov, Shoyim Bo'tayev kabi ijodkorlar davrasida maza qilib ishlardim.

Bir kuni... Jabbor Razzoqov degan mehrdil inson ana shu bolalar gazetasiga muharrir bo'lib keldi. Bu inson bilan uchrashirgan taqdirga tashakkurlar bo'lsin. Jurnalistika sohasida nimadir o'rgangan bo'lsam, nimadir yozgan bo'lsam, qandaydir yutuqqa erishgan bo'lsam, oddiy bir muxbir qizning 1996-yildayoq Prezidentimiz tomonidan "Shuhrat" medaliga sazovor ko'rilgan bo'lsam... bularning hammasi Jabbor aka bilan bog'liq. Xullas, yodda qolari voqealar mana shunday boshlandi.

Bir kuni Jabbor aka qabuliga chaqirib, xalqaro yosh jurnalistlar anjumanida qatnashish uchun "Pioner Vostoka" gazetasiga muxbiri Yelena Shpigner bilan Moskvaga borishimni aytdi va biz Moskvadan taklifnomaga kuta boshladik. Bir hafta davomida Jabbor aka har kuni meni birinchi qavatdagi pochtaga jo'natardi va:

- Borib ko'rib kel-chi, faks kelibdimi? - deb aytdi.

Men har kuni pochtaga tushardim va so'rardim:

- Moskvadan faks keldimi? - deb. Ular: "Hali kelmadi", deb javob berishardi. Xullas, oltinchi kuniyam Jabbor aka meni pochtaga g'izillatdi.

Yana o'sha ahvol. "Kelmabdi", dedim. Jabbor akaning jahli chiqdi.

- Men o'zim ko'rdim-ku, kelganini! Nimaga kelmabdi deysiz?

- Men ko'rmadim.

- Hozirgina ko'rdim, buncha anqovsiz. Shunda meniym jahlim chiqdi.

- Buncha urishasiz. Axir men Faksni tanimasam, ko'rman bo'lsam.

Jabbor aka menga tikilib qoldi va bir payt qah-qah otib kulib yubordi.

- Tanimaysanmi, sen faksni kimdir deb tushudingmi? U Moskvadan yuboriladigan bir varaq qog'oz-ku.

Moskvaga borib keldim. Yelena Shpigner bilan ajoyib voqealarga guvoh bo'ldik. Ular alohida mavzu.

Shunday qilib, o'zgina vaqt o'tib, Jabbor aka "Yosh leninchi" gazetasiga muharrir bo'lib keldi. Oradan bir oygina o'tib, meni ishga taklif qildi. Jabbor aka muharrirlikdagi Toshkentda ko'p ishlay olmadim. Otam mening Samarqandga qaytishimni istadi. Jabbor akaga bu gapni aytdim. U kishi unamadi. Otam Toshkentda ishlab qolishimga rozi bo'lmagandan keyin meni Samarqandga - viloyat "Zarafshon" gazetasiga yubordi. Afsuski, meni "Zarafshon" gazetasiga musahhihlikkayam ishga olishmadi. Bundan Jabbor akaning jahli chiqdi.

- Tayyor jurnalistni, respublika gazetasida ishlaydigan kadрни texnik ishgayam olishmagan bo'lsa, o'zlaridan ko'rishsin. Seni ishsiz qoldirmaymiz.

Oradan bir oy vaqt o'tdi. Jabbor aka maxsus muxbirlik shtati joriy etishga erishdilar va men Sovet-afg'on yoshlari xalqaro festivalini yorituvchi maxsus muxbir sifatida Termizga jo'nab ketdim. Keyin gazetaning Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari bo'yicha maxsus muxbiri bo'lib ishlay boshladim.

O'shanda Jabbor aka uchun har bir shogirdi azizligini, har birining mehnatini qadrlashini va odamgarчилиgini

yuqori inson ekanligini bilganman. Jabbor akaning mehri daryo insonligiga juda ko'p bor duch keldim. O'zinning va jamoamizdagilarning hayoti misolida.

Bir kuni Toshkentga ijodiy yig'ilishga boranimda Jabbor aka qo'limga bir maktub berdi.

- Mana shu maktubni Ergash G'ofurjonovga olib borib bering.

Bilsam, maktubda meni Samarqandda uy bilan ta'minlash so'rab yozilgan ekan. Ergash G'ofurjonov Samarqand shahar ijroiya qo'mitasining raisi edi. Oradan ko'p o'tmay, shahar ijroiya qo'mitasi menga ikki xonali uy ajratishdi. Bu Jabbor akaning yana bir bor shogirdlariga mehribonligining isboti edi.

Navbatdagi safar Qashqadaryoga bo'ldi. Qish payti, havo juda sovuq. Yupun kiyinib, yo'lga chiqqan ekanman, safardan shamollab qaytdim. Ertasi kuni issig'im ko'tarilib ketib, shahar kasalxonasiga tushib qoldim. Oyoqlarim shishib, yur olmay qoldim. Bolalikdan bod kasalim bor edi, shamollash kasalimni zo'riqtirib yuborgandi. Oradan uch kun o'tib, ertalab tursam, ko'z oldim qop-qorong'u - ikkala ko'zim ham ko'rmayotgandi. Davolovchi shifokorim Xadicha G'aniyeva cho'chib ketganidan nuqul:

- To'g'ri muolaja qilayotgandim, hammasi nazorat ostida edi, bu nimasi, - derdi tinmasdan.

Kasalxona to's-to'polon bo'lib ketdi. Tez yordamda meni respublika klinikasining ko'z kasalliklari bo'limiga olib borishdi. Professor Aziz Yusupov ahvol o'ta jiddiylikni, ko'z orqasini va ichini yiring, chandiqlar qoplab olganini aytib, darhol muolajani boshladi. Qorong'ulik qo'riga tushib qolganday edim. Nuqul yig'ildim, tushkunlikka tushib qolgandim. Og'rig'iga chidab bo'lmas darajada ko'zga olingan yuzlab ukollar... Kun bilan tuning farqi yo'qligi, xayolning ming bir xil ko'chalarida sarson kezganlarim... O'sha kunlarni eslasam, haliyam etlarim junjilib ketadi. Ukollarning dahshatli og'rig'ini haliyam vujudimda his qila olaman. Jabbor aka Toshkentda turib viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasidagilarni oyoqqa turg'izdi. Topilmas dorilarni Toshkentdan jo'natib turdi. Bir kuni Vazira bilan Furqat Turniyozov kasalxonaga kelishdi. Ovozlarini taniyman-u, o'zlarini ko'ra olmayman. Ular ham menga qo'shilib yig'ilashdi. Vazira tinmay meni ovutardi:

- Buyam Yaratganning bir sinovi, hali ko'z'laringiz ko'radi. Bunga ishoning.

Ishondim, 4 oy ana shu ishonch bilan tonglarni ottirdim. Hech yodimdan chiqmaydi. Bir kuni hamshira suv to'ldirilgan bankada zuluklar olib keldi va:

- Mana, siz uchun Toshkentdan muharrirangiz berib yuboribdilar. Shifokoringiz zuluk topish muammo bo'layotganini u kishiga aytgan ekanlar.

Bunchalar mehribon bo'ladimi odam degani. Bir shogirdi uchun Toshkentdan zuluk yuboribdilar. O'shanda Jabbor aka bilan birga ishlayotganimdan juda-juda faxrlanganman. Ertasi kuni otamga hammasini aytib berganman. Otam u kishini rosa duo qilgandilar.

- Rahbaringiz sizni juda qadrlar ekan, - dedi professor ertasi kuni topilmas dorini Jabbor aka orqali kimdir olib kelib berganidan keyin.

Xullas, kasalxonadan chiqdim. Lekin ko'zlarim hali yaxshi ko'rmasdi. Ishlay olmasdim. Nogironlik nafaqasiga tayinlamoqchi bo'lishdi. Unamdim, nogironlik nafaqasiga chiqsam, xuddi bir umr nogiron bo'lib qoladigandek his qildim o'zimni. Undan ko'ra ishdan bo'shsh haqida ariza yozdim. Jabbor aka meni rosa koydi. "Bizlarni shunga rozi bo'ladi deb o'yladigizmi, sog'ligingizda ishlatib, bemor bo'lganda tashlab qo'yadiganlardan deb bildingizmi?" dedi. Bu qilig'imdan rosa uyaldim. Bir yil ishlamadim, ishlay olmadim. Lekin har oyda maoshimni olib turdim. Qulman Ochilov yozgan maktubni haliyam saqlab qo'rganman. Qanday dalda bergandilar, qanday meni ko'nglimni ko'targandilar... Hammasi uchun tashakkur.

Men o'sha kunlarni unutmolmayman. Ayniqsa, Ishtixon tumaniilik sobiq afg'onchi Tolib Shermatov bilan suhbatlashib, u haqidagi "O'zim nur bo'laman ko'z'laringizga" maqolamni yozganim sababli. Tolib afg'on urushidan ko'zlaridan ayrilib qaytgan, sochlari jingalak yigit ekan. Xotini Xolbuvi hali-

yam ko'z oldimda. Tolibning hikoyalarini tinglab, o'zimning qorong'ulikda o'tgan kunlarimni esladim, shu sabab ham uni yaxshi tushundim. Shu sabab ham maqolani yig'lab yozdim. O'sha maqolani 8 marta qayta yozgandim. Qulman aka yangi fikr berib, qaytaraverardi. Jonimgayam tegmabdi-ya. Buyam "Turkiston" maktabining bir mahorat darsi edi-da. Tahrirni o'ta kuchli talab qilishardi. O'sha maqolam sabab buxorolik shoira Nodira Afoqova "O'zim nur bo'laman ko'z'laringizga" nomli she'r bitgandi. Har bir maqola hayotimning bir kuni edi men uchun.

Inson chidamli, sabrli. Men shundayman. Yorug' kunlar ham keldi. U kunlardan menga faqat xotiralar va ko'zoynak hamroh bo'lib qoldi. Yaqinda ko'zim uchun navbatdagi muolajani olishga borganim. O'sha yillari - 1987-yili mening ko'zimni davolagan shifokorlardan biri bilan gaplashib qoldim. Hammasini eslashdik. Jabbor akaniyam. Yodida ekan hammasi. Salom aytib qo'yishimni so'radilar.

- O'shanda ko'z'laringizni qaytarish imkoni 3 foiz edi. Buni uddaladik, opa. O'madingiz bor ekan.

Ha, omadli insonman. Agar omadli bo'lmaganimda oddiy qishloq qizi Toshkentdagi nufuzli universitetning hamma havas qiladigan fakultetida o'qimagan, taniqli ijodkorlar bilan birga ishlamagan va vaqtida Guli CHEHRA taxallusli jurnalist bo'lib tanilmagan bo'lardim. Taxallus tanlashning tarixiyam qiziq bo'lgandi.

Navbatdagi qiziqarli maqolam chiqqan kuni Qulman aka chaqirib qoldilar.

Qo'lidagi telefon go'shagini menga berdi. Javob bersam, go'shakdan:

- Shunday go'zal maqolalar yozadigan qizning taxallusi Guli CHEHRA bo'lsa bo'lmaydimi? - dedi.

Men hayron bo'lib, nima deyimni bilmadim.

- Yoqdimi, shu taxallusda yozasizmi bundan keyin? - dedi go'shakdagi inson.

Mening indamay turganimni ko'rgan Qulman aka qo'limdan go'shakni oldi.

- Mayli. Siz aytganday bo'la qolsin. Keyingi sondan shu taxallusda chiqadilar, - deb javob berdi. Keyin menga qarab, "Bu shoir Sirojiddin Sayyid. Maqolalaringizni o'qib borarkan", dedi.

Taxallusniyam taniqli inson tanlab berdi. Endi bu taxallusni oqlash kerak edi. Eh-he, necha-necha tanqidiy maqolalar, kechinmalar, izhorlar yozilmadi bu nom ostida. Har bir maqolam qahramonlari yaqin insonlarimga aylanishdi. Ularga qo'shilib yig'ilgan kunlarim ham bo'ldi. Ba'zan yozganlarimdan uyalaman ham. Zamon talabi deb duch kelgan narsani yozavergan ekanmiz-da, o'zimiz ham. Har gal aza kiyimida yurgan ayollarni ko'rsam, Navoiy tuman komsomol qo'mitasining uchinchi kotibi bo'lgan qizni eslayman. Men ularning faoliyatini o'rganganim borganimda o'sha qizning onasi yaqinda vafot etgan bo'lib, aza kiyimida yurgan ekan. Men yuragi tosh jurnalist, o'shaniyam yozibman-da o'z tanqidiy maqolamda. Menga bu uchun hech kim tanbeh bermadi, lekin mana, oradan necha yillar o'tgan bo'lsa-da, o'sha ishmdan uyalaman. O'sha kuni uchratsam, kechirim so'rayman deymen. Buning uddasidan chiqqanmi yo'yoq, bilmayman... Yozganimdan uyaladigan ikkinchi maqolam o'zim tug'ilib o'sgan Chelak shaharchasi haqida edi.

"Lo'ldan botir chiqsa, o'z kapasiga o't qo'yar", bo'lganda o'ziyam o'sha maqolam. "Pista po'chog'iga ko'milayotgan shahar" deb nom qo'ygandim o'sha maqolaga. Chelakliklar pista qovurib sotish biznesi bilan shug'ullanishadi hozir ham. Shuning uchun atrof pista po'chog'iga to'lib ketadi.

Tanqidiy maqolamga javob yozgan mas'ul shaxs o'shanda:

- Ko'nglingiz to'ldimi, tug'ilgan joyingizni respublikaga tanitib, - degandi jahli bilan. - Koshki bu maqoladan keyin pista chaquvchilar po'chog'ini yerga tashlashmasa!

O'sha inson viloyat miqyosida rahbar bo'lganida menga "O'shanda rosa jahlimni chiqargandigiz-da", degandi.

- Xizmatchilik, - degandim men ham kulib.

Lekin har doim ham munosabatlar kulib yengish bilan yakunlanmasdi. Bir marta jonimga suiqasd ham qilishgandi. Bir tanqidiy maqola sabab bir inson qamalib ketgandi. Oradan ancha yillar o'tib, o'sha insonni bir tadbirda uchratib qoldim. Tanidim, uyam meni tanidi

MATBUOT UYI

Zarafshon

САМАРҚАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 349 nusxada chop etildi. Buyurtma 691. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda